

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 20 - dekabr

458-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy va Kegeyli tumanlari hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 20-noyabrdagi 108/32-son bayoniga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUKning 2023-yil 27-noyabrdagi 01/4-8/2320-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUKga doimiy foydalanish huquqi asosida, Shundan:

Beruniy tumani "Bo'ston" MFY hududidan 330 o'rinli umum ta'lim maktab binosi qurilishi uchun 1,28 gektar yer maydoni 1-ilovaga muvofiq;

Kegeyli tumani "Gujim terek" MFY hududidan 330 o'rinli umum ta'lim maktab binosi qurilishi uchun 1,0 gektar yer maydoni 2-ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida qonunchilikda belgilangan tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK (I.Niyazov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritсин.


5. Mazkur qarorning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 20-dekabrda
458-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova



1. Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumot Gujimterek MFI xududida joylashgan
2. Maydoni (ga) 1,0 ga
3. Yer uchastkasi atrofidagi inshootlar tugrisida qisqacha ma'lumot:
shimol: ochiq maydon
janub: ochiq maydon
g'arb: yul
sharq: ochiq maydon
4. Koordinatasi:

| | | |
|----|----------------|----------------|
| 1. | 59°43'36,809"B | 42°42'19,698"C |
| 2. | 59°43'33,95"B | 42°42'22,133"C |
| 3. | 59°43'37,252"B | 42°42'24,269"C |
| 4. | 59°43'40,104"B | 42°42'21,816"C |
5. Yer fondi: tuman zaxirasi yerlari
6. Yer turi: qishloq xujaligida foydalanmaydigan boshqa yerlar
7. Ball boniteti: Baxolanmagan
8. Yer uchastkasining kadastr raxami: 23.04.02.04.02.0350
9. Foydalanish maqsadi: qurilish uchun